

**LOGOPEDIK MASHG'ULOTLARDA PSIXOLOGIK METODLARDAN
SAMARALI FOYDALANISH VA UNING DOLZARBLIGI**

Alimova Kamila Latibjanovna

Namangan viloyati Davlatobod tumani MMTB

ga qarashli

64- umumiy o'rta ta'lim maktabi logopedi

Hayitboyeva Shohista Komiljon qizi

Namangan viloyati Davlatobod tumani MMTB

ga qarashli

64- umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya Bolalarning psixologik jarayonlari murakkab xarakterga ega bo'lib, o'rganishda ehtiyotkorlik va sabr-toqatni talab qiladi. Shuningdek, ularni namoyon bo'lishi juda xilma-xil bo'lib o'ziga xos holatlarga, tashqi va ichki omillarga bog'liq bo'lib ularning har birini hisobga olish kerak.

Kalit so'zlar: nutq nuqsonlari, treninglar, metodika, faollashtiruvchi mashg'ulotlar, o'ziga ishonch, samimiy munosabatlar, tashqi-ichki omillar, qat'iylik, mexr, e'tibor.

Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar (nutqiy, hissiy, irodaviy) paydo bo'lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma-xil faoliyatning (o'yinlar, o'qish, mehnat) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o'rganadi. Bola dunyoni, atrof-olamni ota-ona ko'zlari bilan anglaydi va bu holat 12 yoshga qadar davom etadi. Bunday holatda eng avvalo ota-onalarning bolaga nisbatan ishonch, hurmat, qo'llab-quvvatlash kabi ijobiy munosabatlarini shakllantirish ko'proq ahamiyatga ega hisoblanadi. Logoped va psixolog hamkorlikdagi faoliyatining asosiy maqsad va vazifalari o'quvchilarning nutqiy buzilishlari ularning psixologiyasiga salbiy ta'sirini oldini olish va ruhiy jarayonlarini korreksiya qilish orqali ularda tezroq va samaraliroq natijaga erishishni belgilaydi. Bolalardagi nutqiy kamchiliklarni bartaraf etish hamda bilish jarayonlarini rivojlantirish eng muhim masala hisoblanadi. O'quvchilarni bilish jarayonlarini (diqqat, idrok, sezgi, xotira va tafakkur) jarayonlarini faollashtirish o'quvchilarning diqqat, idrok, sezgi va nutqiy faoliyatini o'rganib, to'g'ri tashxis qo'yish har bir bolaning o'ziga xos fe'l-atvori va xarakter xususiyatlariga ham e'tibor berishni talab etadi. Boladagi nutq nuqsonlarini tashxislariga qarab psixologik metodlardan samarali foydalanishimiz kerak. Bunda psixokorreksiya nutqni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar samaradorligini oshiradi.

Psixokorreksiya - bu psixologik ta'sirning maxsus vositalaridan foydalangan holda psixologiya yoki inson xatti-harakatlaridagi kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi. Nutq buzilishlarini tuzatishda psixokorreksiyaning o'rni katta ahamiyatga ega. Psixokorreksiyaning eng mashhur usullari quyidagilardir:

- o'yin terapiyasi;
- psixogimnastika;
- art terapiya;
- musiqa terapiyasi;
- biblioterapiya;
- ertak terapiyasi.

O'yin terapiyasi - bu o'yinlardan foydalangan holda bolalar va kattalarga psixoterapevtik ta'sir qilish usuli. Ushbu konsepsiyada tasvirlangan turli xil texnikalar shaxsiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatishga asoslangan. O'yin guruh a'zolari o'rtasida yaqin munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi, tashvish va qo'rquvni yo'qotadi, o'z-o'zini hurmat qilishni oshiradi, ijtimoiy ahamiyatga ega oqibatlar xavfini yo'qotib, o'zingizni turli xil muloqot vaziyatlarida sinab ko'rishga imkon beradi.

O'yin terapiyasi uchun umumiy ko'rsatmalar: izolyatsiya, beparvolik, fobik reaksiyalar, o'ta itoatkorlik, xatti-harakatlarning buzilishi va yomon odatlar, o'g'il bolalarda qizlarda o'ziga xos xususiyatlarini yetarli emasligi. O'yin terapiyasi to'liq autizm va kontaktsiz shizofreniyadan tashqari, turli diagnostik toifadagi bolalar bilan ishlashda samarali ekanligini isbotlaydi.

O'yin psixoterapiyasi quyidagilarga yordam beradi:

- tajovuzkor xatti-harakatlarni yo'qotishda;
- ota-onalari ajrashgandan keyin bolalarning hissiy holatini yaxshilash vositasi sifatida;
- zo'ravon va qarovsiz bolalar tarbiyasida;
- qo'rquvni kamaytirish vositasi sifatida;
- kasalxonaga yotqizilgan bolalarda stress va tashvishni kamaytirishda;
- o'qishdagi qiyinchiliklarni tuzatishda;
- ta'limda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalarning akademik faoliyatida;
- nutq rivojlanishining kechikishida;
- duduqlanishni davolashda;
- o'zligini anglashda takomillashtirish;
- yaqinlaringiz bilan xayrlashishda tashvishlarni kamaytirish

Pedagog, logoped va psixologning hamkorlikdagi faoliyatining ahamiyati.

Boladagi o'zgarishlarni to'g'ri baholash va uni xatti-harakatlari hamda o'zini tutishini nazorat qilish bu uning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har bir faoliyat natijasi uning ishtirokchilariga va hamkorlikdagi munosabatlarga bog'liq.

Shunday ekan har bir logoped atrofidagi psixolog pedagoglar hamda ota-onalar bilan munosabatlarni to'g'ri tashkil etib olishi kerak. O'quvchilarning o'z-o'ziga beradigan bahosini oshirish va ijobiy sifatlarini rivojlantirish uchun quyidagi treninglardan foydalanish mumkin:

“Men liderman”

Trener ko'rsatmasi: har bir inson o'ziga xos takrorlanmas xususiyatga ega. O'ylab ko'ringchi, sizning takrorlanmas va o'ziga xos xususiyatingiz nimada? Har bir biringizni albatta o'zingizga xos, takrorlanmas xususiyatingiz bor va uni ayting misol uchun “Men boshqalardan ajralib turaman” deb o'z xususiyatingizni aytishingiz lozim. “Albatta bu qo'lingizdan keladi” deb har bir o'quvchi qo'llab quvvatlanadi.

“Uddalab bo'lmas missiya”

Maqsad: Ishtirokchilarda o'ziga ishonchini oshirish va sheriklarining ijobiy va salbiy maslahatlaridan ijobiysini tanlay olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kerakli jixozlari: 20 ta kofe idish va ko'z boylagich.

Ushbu mashg'ulotda o'ziga ishongan va qatiyatli 3 ta ishtirokchini mashg'ulotga taklif qilamiz. Bitta ishtirokchini ko'zlarini boylab olinadi va uni ko'zini boylab qo'yiladi, qolgan ikkita ishtirokchilarni biri do'st yordam beruvchi va ikkinchisini esa dushman yo'ldan adashtiruvchi qilib tayinlab qo'yiladi. Ko'zi boylangan ishtirokchi belgilangan masofaga olib kelinadi va belgilangan joyga terib qo'yilgan kofe idishlarini ustidan ko'zi boylangan holda ikkita sheriklarini yo'l ko'rsatmasi bilan idishlarni bosmasdan o'tib olishi kerak. Ishtirokchi qaysi sherigini gaplariga ko'rsatmasiga quloq solganini va nima uchunligini aytadi. Mashg'ulot shu tariqa davom etadi. Qaysi ishtirokchi idishlarni bosmasdan belgilangan masofaga o'tsa o'sha ishtirokchi o'yin g'olibi bo'ladi.

Xulosa o'rnida Boladagi o'zgarishlarni to'g'ri baholash va uni xatti-harakatlari hamda o'zini tutishini nazorat qilish bu uning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har bir faoliyat natijasi uning ishtirokchilariga va hamkorlikdagi munosabatlarga bog'liq. Shunday ekan har bir logoped atrofidagi psixolog pedagoglar hamda ota-onalar bilan munosabatlarni to'g'ri tashkil etib olishi kerak.

Ota-onalarga quyidagi psixologik tavsiyalar beriladi

Ota-onalar uy sharoitidan kelib chiqib, farzandlari bilan birga kun tartibiga amal qilish.

Bolani o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda “senga ishonaman”, “sen uddalaysan”, “men sen bilan faxrlanaman” degan so'zlardan foydalanish.

Bolani kichkina bo'lsa ham o'zi bajargan ishlarini rag'batlantirish “qoyil, “barakalla”.

Bolani ruhan qo'llab-quvvatlash “sen hammadan zo'r bolasan”, “seni juda yaxshi ko'raman”.

Berilgan topshiriqlarni nazorat qilish, birgalikda bajarish.

Kun davomida farzandingiz bilan ko'proq suhbatlashish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.G.Davletshin va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Toshkent. TDPU .2004y.
2. E.G'oziev. Umumiy psixologiya. Toshkent "O'qituvchi" 2010 y.
3. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi. Toshkent. 1998
4. Adizova T.M. Psixokorreksiya. – Toshkent. Tafakkur.2010.150-b
5. Mahmudova D,A. Psixokorreksiya asoslari. –Toshkent. Fan va texnologiya nashriyoti. 2011. 128-b
6. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. Toshkent. TDPU,2006.128-b